REZYUME. Maqolada mustaqillik yillarida axborot-kutubxona sohasining rivojlanishi, islohotlar va natijalar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируются развитие, реформы и результаты деятельности информационно-библиотечной сферы в годы независимости.

SUMMARY. This article analyzes the development, reforms, and performance of the information and library sector since independence.

QORAQALPOQ AN'ANAVIY O'YINLARINING ETNOMADANIY O'ZIGA XOSLIGI VA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

A.A.Eshmuratov – *stajyor o'qituvchi*
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: qoraqalpoq an'anaviy o'yinlari, etnomadaniy o'ziga xoslik, folklor, chaqirmalar, sanamalar, tarqalmalar.

Ключевые слова: каракалпакские традиционные игры**,** этнокультурная идентичность, фольклор, заклички, перечисли, раздачи.

Key words: karakalpak traditional games, ethnocultural identity, folklore, summons, enumerations, distributions.

Kirish. Madaniyatshunoslik fanining bugungi dolzarb yo'nalishlaridan biri – an'anaviy o'yinlarning etnomadaniy tabiati va ularning transformatsiya jarayonlarini har tomonlama tadqiq etish masalasidir. Bu ayniqsa turli tarixiy sinovlardan o'tgan, ko'chmanchi va yarim o'troq turmush tarzini boshdan kechirgan xalqlarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday boy madaniy qatlamlardan birini qoraqalpoq xalqining an'anaviy o'yinlari tashkil etadi.

Asrlar davomida shakllangan qoraqalpoq xalq o'yinlari turli davrlarda goh taraqqiy etib, goh siyosiy-ijtimoiy omillar tufayli susaygan, biroq shunga qaramay, etnomadaniy kod sifatida bugungi kungacha yetib kelgan. Hozirgi kunda jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bir sharoitda, qoraqalpoq an'anaviy o'yinlari ham nafaqat bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish vositasi, balki milliy madaniy xotira va tarbiyaviy maktab sifatida qayta baholanmoqda. Shu bilan birga, davlat rahbari tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli madaniy-ma'rifiy islohotlar nuqtayi nazaridan bu o'yinlarning etnomadaniy qiyofasini ilmiy tahlil qilish, ularning tarixiy ildizlari va bugungi zamon bilan uyg'unlashuvini ko'rsatib berish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar sharhi

Qoraqalpoq an'anaviy o'yinlari mahalliy urug' va qabila guruhlarining tabiiy, xo'jalik va tarixiy ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liq holda vujudga kelgan. Ko'chmanchi va yarim o'troq turmush, chorvachilik, dehqonchilik, baliqchilik, qo'shnichilik munosabatlari, shuningdek, harbiy-demokratik tuzum unsurlari o'yinlarning mazmunida, qoidalarida va timsollarida o'z aksini topgan [2]. Vaqt o'tishi bilan jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar natijasida o'yinlarga yangi elementlar – yangi so'zlar, chaqiriqlar, sanamalar, harakat uslublari qo'shilgan va ular tabiiy ravishda transformatsiyaga uchrab borgan. Shunga qaramay, o'yinlarning asosiy vazifasi – bolalarda jismoniy chiniqish, mardlik, jamoaviylik, do'stlik, hozirjavoblik, badiiy tasavvur va nutqni rivojlantirish kabi sifatlarni shakllantirish – o'zgarmagan. Qoraqalpoq an'anaviy o'yinlari mahalliy aholining maishiy hayoti, marosim madaniyati va badiiy tafakkuri bilan uzviy bog'liq. Ular tezkor harakat, topqirlik, jismoniy chidamlilikni talab qiluvchi o'yinlardan tortib, suhbatli, dramatik, sanamali va qo'shiq-she'rlar bilan

uyg‘unlashgan ko‘rinishlargacha bo‘lgan keng spektrni qamrab oladi [3]. Qoraqalpoq o‘yinlarining etnomadaniy o‘ziga xosligi XX asr boshlarida rus va boshqa xorijiy etnograflar e’tiborini tortgan. 1928–1929 yillarda Orenburglik etnograf A. Melkov boshchiligidagi ekspeditsiya Qoraqalpog‘istonning Kegayli, Taxtako‘pir, Chimboy kabi hududlarida bo‘lib, xalqning kundalik turmushi, uy-ro‘zg‘or buyumlari, milliy kiyimlari, hunarmandchilik anjomlari, chorvachilik va baliqchilik bilan bog‘liq buyumlar bilan bir qatorda an’anaviy o‘yinlarni ham batafsil hujjatlashtirgan [4]. “Áwelemen-duwelemen”, “Gúres”, “At-eshyek”, “Qazan”, “Iyt quyriq”, “Arqan tartıs”, “Ór-teke”, “Qaraqulaq” kabi o‘yinlarning o‘ynalish jarayoni oq-qora fotosuratlarda aks ettirilgan bo‘lib, hozirda ularning ko‘pi Rossiya Fanlar akademiyasining Birlashgan Antropologiya va Etnografiya muzeyida saqlanmoqda. Bu o‘yinlarning katta qismi bugungi kunda ham turli variantlarda yashab kelayotgani, vorisiylik tamoyili va ajdodlar merosiga hurmat qoraqalpoq madaniyatining barqaror ustunlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Qoraqalpoq bolalar o‘yinlari tarkibida mahalliy folklor, og‘zaki ijod, mifologik tasavvurlar va marosim unsurlari chuqur singib ketgan. O‘yinlar oddiy jismoniy mashg‘ulot emas, balki xalqning badiiy tafakkuri, til boyligi, qadriyatlari va tarixiy xotirasini uzluksiz ravishda bolalar ongiga singdirib boruvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. An’anaga ko‘ra, bolalar o‘yin maydoniga to‘planishi bilan ulardan bir nafari – bilag‘on, uddaburon, gapini o‘tkaza oladigan bola – “o‘yinboshi” (tarixan “ağabiy”, “ağaman”, “biye-ke”, “sarkesh”, qizlar orasida “Baya-pa”, “apiya” va h.k.) saylanadi. Zamonaviy nutqda esa bu obraz ko‘proq “sardor” deb atalmoqda. O‘yinboshi o‘yin qoidalarini tushuntiradi, guruhlarni adolatli taqsimlaydi, nizolarni hal etadi va o‘yin intizomini ta’minlaydi. Ilgari uning yonida “shabarman”, “tabarman” singari yordamchilar bo‘lgan bo‘lsa, bugun ular o‘rnini “nazoratchi”, “qorovul” kabi rollar egallagan. E’tiborga molik jihat shuki, bolalarni o‘yinga chorlash, o‘yinni boshlash, yakunlash, ishtirokchilarni teng bo‘lib olish kabi bosqichlarning barchasi maxsus aytimlar, sanamalar, qo‘shiqlar va qofiyali to‘rtliklar orqali amalga oshiriladi. Qoraqalpoq an’analarida bular “chaqirmalar”, “sanamalar”, “tarqalma” nomlari bilan yuritiladi. Har bir bosqich bolalarda ajdodlar merosini his qilish, an’anani davom ettirish, o‘z etnik madaniyatiga mehr uyg‘otish vazifasini bajaradi.

Natijalar. “Qazan” o‘yini. “Qazan” – ayvonga yoki yerga chizilgan maxsus maydonda o‘ynaladigan o‘yin bo‘lib, ikki guruh o‘rtasida kechadi. Raqib hududiga o‘tayotgan bola chiziq ustiga oyoq qo‘ysa, guruhiga “upaý” (ochko) olib keladi. Bu o‘yin:

- hududni himoya qilish,
- jamoaviy taktika va strategiyani,
- chaqqonlik va kuzatuvchanlikni rivojlantiradi.

“Arqan tartıs”. Butun turkiy xalqlarda uchraydigan, biroq qoraqalpoq an’analarida o‘ziga xos nom va marosimiy ko‘rinishlarga ega o‘yin. Ikki guruh 8–12 metrli arqonni o‘z tomoniga tortadi; markaziy chiziqdan kim o‘ziga ko‘proq tortib olsa, o‘sha g‘olib bo‘ladi. Bu o‘yin:

- jamoaviy birdamlikni,
- kuch va chidamlilikni,
- g‘alabaga intilish va kurash ruhini shakllantiradi.

“Iyt quyrıq”. Bu o‘yinda ham bolalar ikki “kolonna” bo‘lib, bir-birining belidan quchoqlab turishadi. Sardar oxirgi bolani “ushlash”ga intiladi, kolonna buzilmasligi kerak. O‘yin:

- bir bo‘lib harakat qilish,
- do‘stlik va o‘zaro ishonchni,
- jismoniy muvozanat va koordinatsiyani kuchaytiradi.

Jangavor va chavandozlik ruhidagi o‘yinlar “At-eshyek” singari o‘yinlar shoh–vazir, ot–eshak kabi ramzlar orqali ijtimoiy maqom, mas’uliyat va zavqli raqobatni ifodalaydi. Ba’zan bolalar tosh tashlab, chiqayotgan natijaga ko‘ra “eshak”, “ot”, “vazir”, “shoh” rolini olishadi. Bu:

- ierarxik tizimni o‘yin orqali his etish,

- vazifa taqsimoti,
- rol o‘ynash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Qoraqalpoq tili qipchoq-nog‘ay guruhiga mansub bo‘lib, undosh va unli tovushlardagi xususiy almashuvlar, сингармонизм, arab, fors-tojik, rus tillaridan kirib kelgan unsurlar bilan ajralib turadi. Bu til xususiyatlari o‘yin nomlari, aytimlar, sanamalar, chaqirmalarda juda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- “Dömbelek”, “Sonarshi”, “Qaqpan”, “Qora, qora – qora alpaq”, “Arpa-g‘urpe”, “Qarashy-qarakshi”, “Taydirmashaq”, “Iyt-qus”, “Barmoqtartmay”, “Besikshappay” va boshqalar aynan mahalliy tilga xos fonetika va semantikani o‘zida mujassamlashtiradi.
- “Anǵalaq” kabi o‘yinlar ta’rifida ham til, ritm va harakat uyg‘unligi ko‘rinadi; aytimlar ba’zan qo‘shiq uslubida ijro etilib, bolalarning musiqiy ritmni his qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Bu holat o‘yinlarni faqat jismoniy mashg‘ulot emas, balki tilni, xalqona metafora va obrazlarni uzluksiz uzatib turuvchi “tirik darslik” ekanini ko‘rsatadi.

Xulosa va munozara

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlari oddiy tomosha yoki bolalar mashg‘ulotidan ancha yuksak darajadagi madaniy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Ular xalqning tarixiy xotirasi, turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati, harbiy-demokratik qadriyatlari, til va og‘zaki ijodi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab etnomadaniy tizimdir. “Áwelemen-duwelemen”, “Qazan”, “Arqan tartis”, “Iyt quyriq”, “At-eshek”, “Gures” kabi o‘yinlar orqali bolalar nafaqat jismonan chiniqadi, balki jamoada harakat qilish, o‘zini tutish, adolat, mardlik, hozirjavoblik va do‘stlik kabi sifatlarni amaliy tajriba orqali o‘zlashtiradi. Qoraqalpoq o‘yinlarining o‘ziga xos jihatlaridan biri – ularning tarkibida saqlanib qolgan boy og‘zaki-poetik qatlamdir. Chaqirmalar, sanamalar, tarqalmalar, o‘yinni boshlash va yakunlashga oid aytimlar, o‘yinboshini saylash marosimlari, bolalarning guruhlarga bo‘linishi – bularning barchasi milliy til, ritm, metaforik tasavvur va mifologik qarashlarni bolalar ongiga tabiiy ravishda singdiruvchi vosita vazifasini bajaradi. Shuningdek, o‘yin terminologiyasi va atamalarining qoraqalpoq tilining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi mahalliy tilni saqlash va rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ta’kidlanganidek, XX asr boshidagi etnografik ekspeditsiyalar – xususan, A. Melkov tomonidan qayd etilgan fotomateriallar – qoraqalpoq o‘yinlarining tarixiy holatini tiklash, ularning dastlabki shakllarini rekonstruksiya qilish va bugungi holatini baholashda ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, V. Belinskiy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan urf-odatlar va o‘yinlar orqali xalqning xarakteri va ma’naviy fazilatlarini anglashga qaratilgan qarashlar qoraqalpoq o‘yinlarining etnomadaniy mazmunini yoritishda muhim nazariy asos bo‘lib kelmoqda. Raqamli madaniyat sharoitida milliy o‘yinlarning ommaviyligi sezilarli darajada pasaygani, bolalarning ko‘proq mobil va onlayn o‘yinlarga berilib ketishi esa jismoniy faollik kamayishi, jonli muloqot va jamoaviy tajribaning qisqarishi, milliy qadriyatlarga befarqlik kuchayishi xavfini tug‘diradi. Shu nuqtayi nazardan, qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, ularning etnomadaniy funksiyalarini aniqlash va zamonaviy ta’lim tizimiga maqsadli integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarini saqlash va rivojlantirish masalasi bu shunchaki “bo‘sh vaqtni qanday o‘tkazish” masalasi emas, balki milliy identitet, ma’naviy xavfsizlik va barkamol avlod tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq masaladir. O‘yinlarni maktab va maktabdan tashqari ta’lim dasturlariga kiritish, madaniy-ma’rifiy tadbirlarda tizimli ravishda namoyish etish, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda milliy o‘yinlarni targ‘ib qilish istiqbolda milliy o‘zlikni asrab-avaylash hamda global sharoitda etnik madaniyatning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Esemuratov K. Dene tarbiyası, Nukus, Bilim -1994. 66-bet.
2. Esemuratov K. Dene tarbiyası, Nukus, Bilim -199463-bet.s://uza.uz/posts/381122
3. Maxmud Yuldoshev. Urf-odatlar: tanganing ikki tomoni. –//“Tafakkur” jurnali, 2019 yil 3-son.
4. Mardonova G. O‘zbek milliy o‘yinlari Ommabop-adabiy nashr). – “Bookmany print” Toshkent, 2022, –5 bet.
5. Jahongirov. O‘zbek bolalar folklori . –Toshkent: “O‘qituvchi”, 1975,-90 b.
6. Esemuratov A. Serimbetov P. Qaraqalpaq milliy hareketli oyınların úyreniw. Nókis, Qaraqalpaqstan – 2005. 16-bet.

REZYUME. Maqolada qoraqalpoq an’anaviy o‘yinlarining etnomadaniy o‘ziga xosligi va ularning tarixiy taraqqiyoti jarayonida kechgan transformatsiya holatlari tahlil etiladi. Qoraqalpoq xalqining ko‘chmanchi va yarim o‘troq turmush tarziga mos ravishda shakllangan bolalar va ommaviy o‘yinlarning mazmuni, tarkibiy tuzilishi, ijro qoidalari, o‘yinboshining o‘rni, chaqirmalar, sanamalar va tarqalmalar kabi og‘zaki poetik unsurlar xalqning etnik xotirasi va madaniy kodi sifatida talqin qilinadi. Raqamli texnologiyalar tez sur’atlar bilan kirib kelayotgan hozirgi sharoitda milliy o‘yinlarning ommalashuv darajasining pasayib borishi, bu holatning yoshlar tarbiyasi va milliy identitetga ta’siri baholanadi hamda an’anaviy o‘yinlarni saqlash, o‘rganish va ularni zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga integratsiya qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar keltiriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье анализируется этнокультурная идентичность традиционных каракалпакских игр и трансформации, произошедшие в процессе их исторического развития. Содержание, структурная структура, правила проведения, роль ведущего, устно-поэтические элементы, такие как заклички, перечисли и раздачи детских и массовых игр, сформированные в соответствии с кочевым и полуоседлым образом жизни каракалпаков, интерпретируются как этническая память и культурный код народа. В современных условиях стремительного проникновения цифровых технологий, снижения популярности национальных игр оценивается влияние этой ситуации на воспитание молодежи и национальную идентичность, а также делаются научно-практические выводы по сохранению, изучению и интеграции традиционных игр в современную образовательную систему.

SUMMARY. The article analyzes the ethnocultural identity of traditional Karakalpak games and the transformations that have occurred in the process of their historical development. The content, structural structure, performance rules, the role of the leader, oral poetic elements such as calls, enumerations and distributions of children's and mass games formed in accordance with the nomadic and semi-sedentary lifestyle of the Karakalpak people are interpreted as the ethnic memory and cultural code of the people. In the current conditions of rapid penetration of digital technologies, the decline in the popularity of national games, the impact of this situation on the upbringing of youth and national identity are assessed, and scientific and practical conclusions are drawn on the preservation, study and integration of traditional games into the modern educational system.